

HUDUDGA XORIJIY INVESTORLARNI JALB ETISH MAQSADIDA INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI

Usmonova Shahrinoz

Termiz davlat universiteti iqtisodiyot yonalishi, magistratura talabasi +998997629199
bintuilhom3@gmail.com

Olokulovna Feruza Mansurovna

Termiz davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada xorijiy investorlarni jalb etish maqsadida hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Unda hududiy infratuzilmani rivojlantirish, qulay soliq va huquqiy muhit yaratish, soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillarni joriy etish, shuningdek, investorlarga kafolat va imtiyozlar berish orqali investitsion muhitni yaxshilash muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ilg'or xorijiy tajribalar asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish imkoniyatlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, xorijiy investor, investitsiyaviy jozibadorlik, hududiy rivojlanish, infratuzilma, soliq imtiyozlari, huquqiy muhit, ma'muriy soddalashtirish, investitsion muhit, kafolatlar, raqobatbardoshlik, xalqaro tajriba.

Annotation: This article analyzes ways to increase the investment attractiveness of regions in order to attract foreign investors. It considers the development of regional infrastructure, the creation of a favorable tax and legal environment, the introduction of simplified administrative procedures, as well as the improvement of the investment climate through the provision of guarantees and benefits to investors as an important factor. The article also develops proposals and recommendations based on advanced foreign experience, and the possibilities of adapting them to local conditions are also highlighted.

Keywords: investment, foreign investor, investment attractiveness, regional development, infrastructure, tax benefits, legal environment, administrative simplification, investment environment, guarantees, competitiveness, international experience.

Аннотация: В статье анализируются пути повышения инвестиционной привлекательности регионов с целью привлечения иностранных инвесторов. Важными факторами он считает улучшение инвестиционного климата за счет

развития региональной инфраструктуры, создания благоприятной налоговой и правовой среды, внедрения упрощенных административных процедур, а также предоставления гарантий и льгот инвесторам. В статье также разрабатываются предложения и рекомендации, основанные на передовом зарубежном опыте, и обсуждаются возможности их адаптации к местным условиям.

Ключевые слова: инвестиции, иностранный инвестор, инвестиционная привлекательность, региональное развитие, инфраструктура, налоговые льготы, правовая среда, административное упрощение, инвестиционный климат, гарантии, конкурентоспособность, международный опыт.

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda va yangi ish o‘rinlarini yaratishda investitsiyalarning, ayniqsa xorijiy sarmoyaning o‘rni beqiyosdir. Bugungi globallashuv sharoitida hududlar o‘rtasida investitsiyalar uchun kurash kuchayib bormoqda. Shuning uchun ham har bir hudud o‘zining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlar uchun qulay va ishonchli muhit yaratish ustida jiddiy bosh qotirmoqda. Investitsiyaviy muhitni yaxshilash orqali nafaqat iqtisodiy o‘shish ta‘minlanadi, balki zamonaviy texnologiyalar, menejment tajribalari va yuqori malakali ish kuchi hududga kirib keladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan investitsion islohotlar 2030-yilga qadar, iqtisodiyotning hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan ham yuqori bo‘lgan mamlakatlar” kirish masalalariga qaratilgan. Shu bilan birgalikda, mamlakatda sanoat salohiyatini oshirish asosida iqtisodiyotni rivojlantirishda “asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalarning hajmini yillik o‘rtacha 7 foiz atrofida o‘shirishni ta‘minlash¹ nazarda tutilgan.

Asosiy qism.

Hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi – bu xorijiy investorlar uchun yaratilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va infratuzilmaviy sharoitlarning yig‘indisidir. Ushbu jozibadorlik darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, xorijiy investorlar tomonidan hududga sarmoya kiritish ehtimoli shuncha oshadi. Buning uchun birinchi navbatda hududda qulay va barqaror investitsion muhitni shakllantirish zarur.

Birinchidan, infratuzilmaviy rivojlanish investorlarga muhim turtki bo‘la oladi. Elektr energiyasi, transport yo‘llari, logistika markazlari, aloqa tarmoqlari kabi infratuzilmalar yaxshi rivojlangan hududlar investorlar uchun ancha jozibador

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 11.09.2023 yildagi PF-158-son

hisoblanadi. Shu sababli, davlat tomonidan strategik tarmoqlarda infratuzilmani modernizatsiya qilish va kengaytirish choralari ko‘rilishi lozim.


Ikkinchidan, huquqiy barqarorlik va investorlarga kafolatlar taqdim etilishi ham muhimdir. Xorijiy investorlar o‘z sarmoyalarining xavfsizligiga ishonch hosil qilgan taqdirdagina kapital kiritadi. Shu bois investitsiya qonunchiligini takomillashtirish, mulk huquqini himoya qilish va investorlar bilan davlat o‘rtasidagi nizolarni hal qilishning shaffof mexanizmlarini joriy etish lozim.

Uchinchidan, soliq va bojxona imtiyozlari jozibadorlikni oshiruvchi muhim vositalardan biridir. Masalan, xorijiy investorlar uchun soliq holiday (imtiyozli davr), erkin iqtisodiy zonalardagi bojxona to‘lovlaridan ozod qilish, foyda solig‘ini kamaytirish kabi yondashuvlar samarali natijalar beradi.

To‘rtinchidan, ma‘muriy tartib-taomillarning soddalashtirilishi investorlar uchun byurokratik to‘siqlarni kamaytiradi. Yagona darcha tizimi, elektron litsenziyalash, qisqa muddatlarda ro‘yxatga olish va yer ajratish jarayonlari samaradorlikni oshiradi. Bunday yondashuvlar O‘zbekistonning ba‘zi hududlarida muvaffaqiyatli tatbiq qilinmoqda.

Beshinchidan, hududning iqtisodiy salohiyati va mehnat resurslari ham muhim ahamiyatga ega. Hududda mavjud bo‘lgan tabiiy boyliklar, sanoat salohiyati, ixtisoslashgan mehnat kuchi va mahalliy bozor talablari investorlar uchun tahlil qilinadigan asosiy omillardandir. Shuningdek, xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalarni jalb etishda marketing va targ‘ibot faoliyati ham muhim rol o‘ynaydi. Ko‘plab davlatlar xorijiy sarmoyadorlar uchun maxsus forumlar, investitsion ko‘rgazmalar va “roadshow”lar tashkil etadi. Bu orqali hududlar o‘z imkoniyatlarini keng auditoriyaga namoyish eta oladi. Yana bir muhim jihat – bu xalqaro reytinglar va baholash tizimlaridagi o‘rin. “Doing Business” kabi xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash, hududlar uchun xorijiy sarmoyani jalb qilishda ijobiy ko‘rsatkich bo‘lib xizmat qiladi.

Surxondaryo viloyati hududning geografik joylashuvi (chegara,transport) bilan birgalikda mehnat salohiyatining afzalliklari bilan bevosita investitsion jozibadorlik bog‘liqdir. Bu usullardan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda hududning iqtisodiy salohiyati va aholi farovonligini oshirishda transchegaraviy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.



1-rasm. Surxondaryo viloyatiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar dinamikasi

Bu borada Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining ma'lumotlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2023-yilda 17956,0 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiya o'zlashtirilgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan 55,2 foizga oshgan. Bunda 2015-yilda viloyatga bor-yo'g'i 191,7 mlrd. so'm to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 11114,8 mlrd. so'mga yetgan.² Statistikadan shuni ko'rishimiz mumkinki eng yuqori ko'rsatkichni Boysun tumani 3179,3 mlrd so'mni tashkil qilgan.

Rasmda keltirilgan 2015-yil va 2023-yillarda Surxondaryo viloyatiga jalb qilingan xorijiy investitsiyalar dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2015-yilda tumanlararo o'rtacha xorijiy investitsiya hajmi 9,1 %ni tashkil etgan vaholanki, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 43,9 foizga oshib, 53,0 % ni tashkil etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, investorlarning qarorlari samaradorligini baholash uchun qiyin bo'lgan bir qator sub'ektiv omillar ta'sir qilishi aniqlandi, shuningdek, ular qisman investorning bilimlari bilan belgilanadigan individual imtiyozlar tizimini ifodalaydi.

So'nggi paytlarda ilmiy ishlarda va ilmiy-ommabop nashrlarda investitsiya loyihasi (korxonasi) muayyan mahsulot sifatida qaraladigan yondashuvni uchratish mumkin³. Yuqoridagilarni hisobga olsak, nafaqat investitsiya loyihasini mahsulot sifatida, balki butun korxonani ham ko'rib chiqish mumkin. Shunda korxonaning investitsion

² <https://surxonstat.uz/>

³Babaev M. Marketing investitsionnykh proektov v stroitelstve [elektronniy resurs] / M. Babaev // Jurnal «Pravo i jizn». – Rejim dostupu: [http://www.law-n-life.ru/arch/142/142-11.doc.](http://www.law-n-life.ru/arch/142/142-11.doc;);

jozibadorligini marketing nuqtai nazaridan, korxonaning investitsion faoliyatini esa mahsulot sifatidagi sifatini oshiradigan iqtisodiy faoliyat sifatida baholash mumkin.

Xulosa:

Xorijiy investitsiyalarni hududlarga jalb etish – bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishning, balki xalqaro hamkorlik va texnologik taraqqiyotning ham muhim omillaridan biridir. Investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish uchun esa kompleks yondashuv zarur: infratuzilmani rivojlantirish, huquqiy barqarorlikni ta'minlash, soliq va bojxona imtiyozlarini taklif etish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish hamda faol targ'ibot ishlarini yo'lga qo'yish – bu boradagi eng samarali choralardandir. Hududlar o'zining iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholab, xorijiy investorlar bilan uzoq muddatli va ishonchli hamkorlikka asoslangan siyosat yuritishi lozim. Faqat shundagina investitsiyaviy muhit raqobatbardosh bo'lib, hududlar jadal rivojlanishga erishishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4886-son qarori. "2021–2022 yillarda investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy sayti – <https://www.invest.gov.uz>
3. “Doing Business 2020” – World Bank Group.
4. Sodiqov A., Mirzayev B. “Investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida.” – T.: Iqtisodiyot, 2020.
5. Raximov M. “Investitsiyaviy muhitni shakllantirishda hududlarning roli.” – T.: Fan va texnologiya, 2019.
6. Xoliqov A., Nurullayev J. “Hududiy rivojlanish strategiyasi va investitsiyalar.” – Samarqand iqtisodiyot instituti nashri, 2021.
7. OECD. “Foreign Direct Investment for Development: Maximising Benefits, Minimising Costs.”
8. International Finance Corporation (IFC). “Investment Climate Reform.”
9. “Investitsiyalar asoslari.” – Darslik, TDIU, 2020.
10. Nazarov Q. “Xorijiy investitsiyalarni jalb etishda soliq siyosatining roli.” – TDIU ilmiy jurnali, 2022.
11. UNCTAD. “World Investment Report 2023.”
12. Xudoyberdiyev A. “Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion faoliyat.” – T.: Akademnashr, 2017.

13. “Uzbekistan Investment Guide 2024” – O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi hamkorligida tayyorlangan qo‘llanma.
14. <https://stat.uz/uz/>
15. <https://surxonstat.uz/>